

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

**BOTIR ZOKIROV IJODIDA KOMPOZITOR IKROM AKBAROVNING ESTRADA
QO'SHIQLARI**

Yoqubjonova Zulfiya Ravshanovna

Mirsaliyev Jamshid Mirkamilovich

Respublika musiqa va san'at kolleji

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek estrada qo'shiqchisi Botir Zokirovning O'zbekistonda estrada san'atining rivojlanishdagi o'rni, kompozitor Ikrom Akbarovning estrada qo'shiqlar tahlili, xonanda omillari va komponentlariga tayangan holda talqini tushunchasini ta'riflari haqida so'z boradi*

Kalit so'zlar: *Maro bebus, Meychale, Shankara, Qurkam dala, Armuon*

Ko'p asrlik an'analarni qayta tiklash, davom ettirish va rivojlantirish bu umuminson burchlardan biri bo'lib, bugungi kunda mazkur mezonlar ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, zamonaviy san'atshunoslikning qiziqishlari doirasida ijrochilik masalalari ham taalluqli bo'lib, hozirda ularning har xil ko'rinish va shakllari tadqiq etilmoqda.

Estra xonandalarining ijrochilik an'analari O'zbekiston musiqa ma'daniyatida yetakchi vazifani bajaribgina qolmay, u xalqimizning tarixiy, ma'daniy va intellectual merosi hamdir. Xonandalarning san'atini chuqur o'rganilishi, tatbiq etilishi, davom etishi va rivojlanishi musiqa san'atining dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

O'zbekistonda yangi estrada sohasining dastlabki shakllanish davrida ham shunga o'xhash jarayonlar kuzatilgan edi. Ilk estrada san'atkorlarining yorqin ijrochilik salohiyati, sermahsul faoliyati zamonaviy o'zbek qo'shiqchiligining zaminini tashkil etib, mazkur ommaviy san'at qatlaming yuqori pog'onalarga ko'tarilishini ta'minlagan. Bu borada o'zbek estrada janrining asoschisi va uning benazir ijrochisi – xonanda, aktyor, iste'dodli rassom, shoir, dramaturg Botir Zokirov (1936-1985) nomi doimo barhayotdir.

Uning serqirra ijodida artistik, kompozitorlik va poetik badiiy xususiyatlar o'z aksini topgan. O'z ijodiga jiddiy qarash, musiqa hamda she'riy matnlarga talabchanlik, sahnani muqaddas dargoh sifatida qabul qilib, go'zal artistik mahorat va nozik did bilan ommaviy qo'shiqchilik san'atiga yondashish qadimdan Sharq mamlakatlarining aksariyat taniqli musiqachilariga xos axloqiy va badiiy xislatlardan edi. B.Zokirov qo'shiqlari orqali chuqur falsafiy mavzularni, insonning ichki nozik ruhiy kechinmalarini samimiy va tabiiy, o'zi bu tuyg'ularni qalban teran his etgan holda ifodalashga intilgan. Har bir ijro etadigan qo'shig'ining matni zamirida albatta botiniy va zohiriy mazmun, falsafiy ma'no yotishi kerak bo'lган.

Xonandaning Sharq mavzusiga murojaat etishi uning muhim ijodiy tomonini tashkil etadi. O'quv yillaridanoq B.Zokirov o'zbek xalq kuylri qatorida Sharq ijrochilik

an'analariga qiziqadi. qo'shiqlarini o'rganadi. B.Zokirov Sharq va G'arb xalqlari musiqasiga xos xususiyatlarni o'rganib, xonandalari va ijodkorlari faoliyatiga sinchkovlik bilan e'tibor berdi, o'zbek ohanglariga yaqinlarini tanlagan. Ulardagi so'z talaffuzlarini o'ziga xos nozik ohang qochirimlarini ilg'agan edi. Sharq qo'shiqlarining talqini nafaqat mazkur mamlakatlar namoyandalariga, balki G'arb musiqasida tarbiya ko'rgan tinglovchilarga ham shu darajada yetib borgan va ta'sir ko'rsatgan. Bu borada B.Zokirovni butun dunyoga tanitgan Dorish al-Attoshning «Arab tangosi» («Mening nurli orzularim», 1959 yilda tasmaga yozib olingan)ni alohida qayd etish zarur. Shu bilan birga ozarbayjon, hind, eron, afg'on, arab tillaridagi qo'shiqlarini mehr bilan tinglab, ularni o'ziga xos kuylashga muvaffaq bo'lди. Uning «Nechun xayolga cho'mding», singlisi Luiza bilan aytgan «Meychale» hindcha qo'shiqlari, eron xalq qo'shiqlari «Maro bebus», «Ayriliq qo'shig'i», Livan xalq qo'shig'i «Chiroyli qiz» kabi qo'shiqlari o'zbek tinglovchisining qalbidan mustahkam o'rин egallagan.Demak, xonandaning repertuaridan o'rин egallagan turli Sharq xalqlari qo'shiqlari asosan original tillarda (tojik, eron, hind, arab), ularning asl mazmuni, ohangini saqlab ijro etilgan. Bu esa Botir Zokirov har bir qo'shiqqa mas'uliyat bilan, uni avaylagan holda yondashib, talqinlarining baynalmilal mohiyatini namoyon etadi hamda uning umumjahon musiqa madaniyatida tutgan yuqori mavqeini aniq belgilaydi.

B.Zokirovning bu boradagi ishlarini «Yalla» guruhining yakkaxoni ukasi Farrux Zokirov ham davom ettirgan. Misol tariqasida hindcha «Shankara», «Emmina», «Jinnuni» kabi qo'shiqlarini keltirish mumkin.

Kompozitor Ikrom Akbarov atoqli Estrada xonandasasi O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov uchun maxsus ypzilgan va ilk bor yangragan "Ra'no", "Gazli ko'xliklari", "Maxbubga", "Ketma Nigor", "Qaydasan", "Yor kel", "Qo'shchinor", "Qor yog'ar", "Baxor vasli", "Azizim, "Lolazor chorlaydi" kabi estrada qo'shiqlari o'z tinglovchilarining qalbidan chuqur joy oldi. Mazkur qo'shiqlar rus va ukrain tillarida ham ijro etilgan.

Bastakor Ikrom Akbarovning Botir Zokirov bilan mustahkam va samarali ittifoqi katta ijodiy muvaffaqiyatga aylandi. Garmonik asos sifatida usulga asoslangan T. Tula so'zidagi "Gazli kuchlari" ("Gazli qo'shig'i") qo'shiqlari katta shuhurat qozongan; S.Akbariy so'zlariga "Ra'no", juftlik shaklining o'ziga xos talqini bilan, shuningdek, "Qaydasan?" ("Qaerdasiz?") T. Tulaning so'zlariga, kesishgan rivojlanish xususiyatlariga ega. H.G'ulom so'ziga yozilgan "Qo'sh chinor" ("Ikki chinor"), "Qurkam dala" mazmuni yangiligi va intonatsion tarovati bilan ajralib turadigan "Qo'sh chinor" kabi lirik qo'shiqlar milliy zamin bilan uzviy bog'liq., bu ranglarning yorqinligi bilan o'ziga tortadi. Bastakor ijodida hajviy atamalar uslubida mustahkamlangan, jo'shqin va sho'x xarakteri, quvnoq dunyoqarashi bilan ajralib turadigan "Armuon" ("Sovg'a") qo'shig'i alohida o'rın tutadi.

Ikrom Akbarov Botir Zokirov bilan birga ishlaganda xonandaga barcha tavsiyalarni berar edi. Qo'shiqni muallifi asarning har bir jumlesi ustida ishlar va

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

o'zining istak talablarini bildirar edi. Shuning uchun ham bu qo'shiqlar Botir Zokirov ijrosida o'ziga xos uslubda ijro etilgan va tinglovchilar qalbida chuqur iz qoldirgan. Hozirgi kunda mazkur asarlar estrada xonandaligi yo'naliishi bo'yicha ta'lif olayotgan Oliy va o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quvchi talabalarning shakllanishida va ijro dasturida muxim o'rinni tutgan.

Botir Zokirov ijro uslubining muhim tamoni –yuksak badiiy did, ichki madaniyati bilan farqlanib, talqin nuqtai nazaridan tinglovchilar etiborini o'ziga jalb etishida namoyon bo'ladi. Xonandaning o'ziga xos ijrochilik uslubini tadqiq qilish maqsadida Botir Zokirov kontsert repertuaridan o'rinni olg'an – “Yor kel”, “G'azli” (Ikrom Akbarov), “Nomedenam chi nom dorad” romansi (Mutal Burxonov), “Umid”, (Enmark Salixov), “Seni ovozingni eshitmoq” (Xind qo'shig'i) , “Marobebus” (Eroncha qo'shig'), “Sarbon” (Afg'on qo'shig'i) , “Arab tangosi ”, “Qochoq Xabiba” (Arabcha qo'shiq) kabi asarlar taxlil etiladi.

Taxlillar Botir Zokirovning “Kundaliklar”idagi muloxazalari orqali izoxlab beriladi. Ularda Botir Zokirovning qo'shiqlar talqiniga bo'lg'an munosabati, ijrochilik va talqin masalalariga doir o'ta talabchan qarashlari, asarlarini “Jonlantirish”, “qiyomiga yetqazish” jarayoni shunigdek xonanda dunyoqarashining etik va estetik tomonlariga taalluqli qimmatli jixatlari o'rinni olgan .

Xonandaning‘ yoshlik chog'larida shakllangan qobiliyati, eshitish tajribasiga tayanib, ijrodagi nozik va murakkab texnik qirralarni asl nusxadek talqin etish maorati aloxida qayd etiladi. Keyinchalik ijrochilikning‘ bu muhim jixati Botir Zokirov konsert repertuarlaridan o'rinni olgan baynalminal qo'shiqlarning muvofaqqiyatli talqinlar garoviga aylandi. Botir Zokirov ijrosidagi Jak Brel, Enriko Massias qo'shiqlari – Fransiyada “Arab tangosi ” – Saudiya Arabistonida shuxrat qozongani misol o'rnida keltiriladi.

Botir Zokirov konsert repertuarining salmoqli qismini estarada - sifonik orkestr jo'rligida ijro etib kelgan asarlar tashkil qiladi . Ko'p yillar orkestrda olib borongan ijodiy faoliyati vokal istedotining o'ziga xos jixatlari, uning‘ ko'lami va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib keladi. Botir Zokirov Zokiran tejamkor xissiyot va kamtarin saxna xarakatlari orqali, asardagi pinxon, teran xissiyot mazmunini tinglovchilarga etkazib berish maxoratiga ega bo'lgan. Zero, xonanda ijro etgan xar bir qo'shiq qalban xis etilib, “Dardli” ovozida uning‘ g'oyaasi samimiyl ifodasini topgan. Yagona oxang, kuy yo'li orqali qo'shiqni saxnalashtira olish qobiliyatigga ega bo'lgan xonanda, o'z navbatida orkestr bilan uyg'unlasha bilish maxoratiga xam ega edi. Ijro uslubining betakrorligi, yorqin va yuksak talqinlari bilan Botir Zokirov milliy estrada ijrochilik maktabig'a asos soldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Асафьев Б. Музыкальная форма как процесс. Л., 1971.

3– SON / 2022 - YIL / 15 - NOYABR

2. Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. Т., 1961.
3. Гафурбеков Т. Пора интенсивного возмужания “Советская музыка”, 1981. №7, с.20
4. Головянц Т.А. Об особенностях музыкального языка струнных квартетов Ик. Акбарова. //Вопросы музыкального исполнительства и педагогики. Т., 2011
5. Закржевская С.А. Гармония в творчестве композиторов Узбекистана. Автореферат дисс. на соиск. уч. ст. канд. искусствоведения. Алма-Ата, 1967.